“TASDIQLAYMAN”
Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti rektori v.b.

____________ E.X.Isakov
“ 30 “ avgust 2021 yil

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi Samarqand davlat arxitektura-qurilish instituti Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limining 2021/2022 o‘quv yili uchun ISh REJASI**

| № | Amalga oshiriladigan ishlar mazmuni | Ijro mexanizmi | Bajarish muddati | Ijro uchun mas’ullar |
|---|---|---|---|---|
| 1 | Institutda 2021-2022 o‘quv yilidan o‘quv jarayonining DTS, malaka talablari, o‘quv rejalari, ishchi o‘quv rejalarining O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining “Oliy ta’limning Davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021 yil 16 iyuldagi 311 son buyrug‘i asosida to‘g‘ri shakllantirilganligi va ta’minlanganlik holatini o‘rganish | DTS, malaka talablari, o‘quv rejalari, ishchi o‘quv rejalarining hujjatlarning o‘quv bo‘limi, dekanat, kafedralar kesimida mavjudligi o‘rganiladi. Institutga 2021-2022 o‘quv yili birinchi kurs bakalavr ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari uchun o‘quv reja va fan dasturlari mutaxassislik kafedralar tomonidan mustaqil ishlab chiqilganlik holati va sifati tahlil qilinadi. | 2021 yil avgust | TSNQ bo‘limi, O‘quv-uslubiy bo‘lim, kafedra mudirlari |
| 2 | Kafedralarda 2021/2022 o‘quv yili uchun ta’lim yo‘nalishlari va magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha o‘quv rejalarida nazarda tutilgan fanlardan namunaviy va ishchi fan dasturlarining sifatini o‘rganish | Professor-o‘qituvchilar tomonidan ishlab chiqilgan fan dasturlarida mavzularning talabalar ehtiyojlariga mosligi tahlil qilinadi, pedagogik texnologiyalarning mashg‘ulotlar jarayonida qo‘llanilayotganligi baholanadi, kamchilik va muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar beriladi | 2021 yil sentabr | TSNQ bo‘limi, O‘quv-uslubiy bo‘lim, kafedra mudirlari |
| 3 | Institutda joriy etilgan ta’limning kredit-modul shakli bo‘yicha ishlarning ahvolini o‘rganish | O‘qitishning modul texnologiyalari kompleksi yaratilganligi, kredit o‘lchovi asosida baholash modeli joriy etilganligi, , shuningdek, fanlar katalogi va fan dasturlarining ishlab chiqilganligi; talabaning shaxsiy ta’lim trayektoriyasini shakllantirilganligi; kreditning soatlardagi miqdori va o‘quv yuklamasi institut veb-sahifasida joylashtirilganligi; talabalar tomonidan dastlabki bir hafta davomida o‘zi tanlagan professor-o‘qituvchining mashg‘ulotida qatnashish uchun onlayn tarzda ro‘yxatdan o‘tish tizimining yaratilganligi va boshqalar tahliliy o‘rganiladi. Tahliliy ma’lumot chora-tadbirlar belgilash uchun | 2021 yil, avgust - sentabr | TSNQ bo‘limi, O‘quv-uslubiy bo‘lim, fakultet dekanlari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | institut rahbariyatiga taqdim etiladi. | | |
| 4 | Institutning 19.06.2021 yildagi № 226-u-sonli buyrug‘iga asosan mutaxassis chiqaruvchi kafedralarni ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha ichki attestatsiyadan o‘tkazilishini tashkil etish | Har bir kafedra attestatsiya o‘tkazish bo‘yicha yo‘riqnomaga asosan to‘liq o‘rganiladi va natijalari bo‘yicha ta’lim sifatiga salbiy ta’sir etuvchi omillar aniqlanadi, institut Kengashi va rektorga ma’lumotnoma taqdim etiladi | 2021 yil oktabr | TSNQ bo‘limi, O‘quv-uslubiy bo‘lim, ishchi guruh a’zolari |
| 5 | Institutda hududlardagi ish beruvchi tashkilot va korxonalar bilan hamkorlikdagi ishlarning samaradorligini oshirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni tahliliy o‘rganish | Mutaxassis tayyorlovchi kafedralar bilan ish beruvchilar o‘rtasida hamkorlik shartnomalari tuzish hamda ularning ob’ektlarida kafedra filiallari va o‘quv auditoriyalari tashkil etish ishlarini amalga oshirish masalalari hamda o‘quv jarayoni bilan ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsion hamkorlik, innovatsion g‘oyalar, ishlanma va texnologiyalarni kengaytirish yuzasidan taklif va tavsiyalar beriladi. | 2021 yil noyabr | TSNQ bo‘limi, Marketing va talabalar amaliyoti bo‘limi, kafedra mudirlari |
| 6 | Institut kafedralari tomonidan xorijiy OTM kafedralari bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yganlik holatini o‘rganish | Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2021 yil 16 iyun kuni oliy ta’lim tizimidagi ustuvor vazifalarga bag‘ishlangan videoselektor yig‘ilishida xalqaro aloqalarni mustahkamlash yuzasidan berilgan topshiriqlarning kafedralardagi ijrosi o‘rganiladi. Xorijiy kafedralar bilan tuzilgan shartnomalar, tashkil etilgan vebinarlar, xorijda stajirovka va malaka oshirish masalalari ko‘rib chiqiladi, kamchilik va muammolar aniqlanadi va tahliliy ma’lumot chora-tadbirlar belgilash uchun institut rektoriga taqdim etiladi. | 2021 yil noyabr | TSNQ bo‘limi, Xalqaro aloqalar bo‘limi, kafedra mudirlari |
| 7. | O‘quv jarayonining zamonaviy kompyuter texnikasi, elektron doska, proyektor va boshqalar bilan ta’minlanganligi, ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarning hususiyatlarining kelib chiqib o‘quv jarayoni uchun kerakli dasturlar bilan ta’minlanganligini o‘rganish | Talabalar kontingentidan kelib chiqib, o‘quv jarayonining nechta smena tashkil etilishi, belgilangan me’yorlar bo‘yicha professor-o‘qituvchilar, moddiy-texnik ta’minot va talabalar turar joyiga ehtiyojlarning aniqlanganligi va ehtiyojlarni to‘ldirish uchun rejaning mavjudligi, shuningdek, ta’lim jarayonining AKT vositalari bilan ta’minlanganligi hamda ularga bo‘lgan ehtiyoj aniqlanadi, o‘quv jarayoni uchun kerakli dasturiy ta’minot holati tahlil qilinadi va moddiy-texnik baza holatini takomillashtirish bo‘yicha takliflar beriladi. | 2021 yil dekabr | TSNQ bo‘limi, O‘qitishning texnik vositalari bo‘limi, O‘quv-uslubiy bo‘lim, kafedra mudirlari |
| 8. | Institutda ilmiy-tadqiqot faoliyatining samaradorligi o‘rganiladi, ularning reyting indikatorlariga ta’siri, ta’lim sifatini oshirishga yo‘naltirilgan-ligini tahlil qilish | Institutda ilmiy-tadqiqot ishlarining holati professor-o‘qituvchilar va talabalarining ilmiy-tadqiqot ishlaridagi (fundamental, amaliy va boshqa ilmiy tadqiqotlar kesimida) ishtiroki, ilmiy ishlarining amaliyotda qo‘llanilishi, plagiatni bartaraf etadigan axborot dasturlarini joriy qilinganligi o‘rganiladi. | 2021 yil dekabr | Ilmiy va IPKTbo‘limi, TSNQ bo‘limi, kafedra mudirlari |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| 9. | SamDAQI reytingini QS-rankings OTMlar reytingini aniqlash tizimiga joylashtirish, institut rahbariyati bilan birgalikda institutning xalqaro reyting ko‘rsatkichlarini ko‘tarishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish va uni ijrosini ta’minlashda faol ishtirok etish | 2021 yilda SamDAQIning barcha sohalarda erishgan natijalari QS-rankings OTMlar reytingini aniqlash tizimiga kiritiladi, kafedralar kesimida institut reytingini ko‘tarish bo‘yicha ishlab chiqilgan “Samaradorlik ko‘rsatkichlari”(Yo‘l xaritasi)ning ijrosi o‘rganiladi va natijalari to‘g‘risida institut rektoriga axborot kiritiladi. | 2022 yil yanvar | Barcha prorektorlar, fakultet dekanlari, xalqaro aloqalar bo‘limi TSNQ bo‘limi |
| 10. | O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 7 iyundagi 467-son qaroriga muvofiq institutning 2021 yildagi faoliyati bo‘yicha reytingini baholashga oid ma’lumotlarni yig‘ish va natijalarni Davlat inspeksiyasiga taqdim etish. | Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi tomonidan institut reytingni aniqlashga doir ma’lumotlar to‘planadi, tahlil qilinadi hamda har yili 1 fevralga qadar O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta’lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasiga umumlashtirilgan holda taqdim etiladi | 2022 yil yanvar | Barcha prorektorlar, fakultet dekanatlari, kafedra mudirlari, TSNQ bo‘limi |
| 11. | Institutda talabalar bilimini baholash maqsadida nazorat turlarini o‘tkazilishini doimiy ravishda nazorat qilib borish | Institutda nazorat turlarini o‘tkazilishi bo‘lim tomonidan doimiy ravishda o‘rganib boriladi, talabalar bilimini baholashning, shu jumladan masofadan turib baholash jarayonlari va natijalarining xolisligi va shaffofligi o‘rganiladi, bo‘lim xodimlari talabalar bilimini baholashda, shu jumladan masofadan turib baholash jarayonlarida kuzatuvchi sifatida ishtirok etadilar | 2022 yil yanvar-iyul | TSNQ bo‘limi, O‘quv-uslubiy bo‘lim, fakultet dekanatlari, |
| 12. | Institut rektorining 2021 yil 18 maydagi 5-sonli buyrug‘iga asosan professor-o‘qituvchilarning faoliyati, bilimi va pedagogik ko‘nikmasini baholash tizimini rivojlantirish va professor-o‘qituvchilarning reytingini tuzish | Institut professor-o‘qituvchilarining “O‘quv, o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot va tashkiliy ishlar bo‘yicha faoliyati reytingini aniqlash tartibi to‘g‘risida nizom va hisoblash metodikasi”ga asosan ularning bir yil davomida bajarilgan ishlari hisoblanib, institut bo‘yicha professor-o‘qituvchilar reytingi tuziladi va institut veb-saytida e’lon qilinadi | 2022 yil fevral | TSNQ bo‘limi, kafedra mudirlari |
| 13. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PQ-5117-son qaroriga asosan, 2021-2022 o‘quv yilidan professor-o‘qituvchilarga chet tillarini o‘rgatish bo‘yicha institutda tashkil etilgan o‘quv kurslari faoliyatining samaradorligi va sifatini o‘rganish | Institutda xususiy sheriklik asosida tashkil qilingan “Xorijiy tillarni o‘rgatish” o‘quv markazi tomonidan o‘quv yilida professor-o‘qituvchilarga chet tillarini o‘rgatish bo‘yicha o‘quv kurslari faoliyatining samarasi va sifati o‘rganiladi, kamchiliklar aniqlanib bartaraf etish choralari ko‘riladi | 2022 yil fevral | TSNQ bo‘limi, O‘quv-uslubiy bo‘lim, Xorijiy tillar kafedrasi |
| 14. | Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan 5 ta tashabbusni institutda qay darajada tatbiq etilganligi | Talaba yoshlarga berilayotgan e’tibor, ularni madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, ularda axborot texnologiyalaridan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish, yoshlar o‘rtasida kitobxonlikni targ‘ib qilish, xotin-qizlar bilan | 2022 yil, mart | Yoshlar bilan ishlash va ma’naviyat bo‘limi |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | ishlash masalalari o‘rganiladi. | | |
| 15. | Professor - o‘qituvchilar tomonidan dars mashg‘ulotlarini o‘tish holatini tahliliy o‘rganib borish (o‘zaro darslarga kirish asosida) | Tajribali mutaxassislarni ekspert sifatida jalb qilgan holda professor-o‘qituvchilar dars mashg‘ulotlarining o‘tkazish sifati o‘rganiladi, ularning ahamiyati va samarasiga e’tibor qaratiladi. O‘rganish natijalari bo‘yicha takliflar OTM rektoriga (OTM kengashiga) taqdim etiladi. | 2021-2022 o‘quv yili davomida | TSNQ bo‘limi, O‘quv-uslubiy bo‘lim, kafedra mudirlari |
| 16. | Talabalar davomati va o‘qituvchilarning mashg‘ulotlarga tayyorgarlik darajasini monitoring qilib borish | Talabalar davomati va professor-o‘qituvchilarning darsga, shu jumladan masofaviy ta’limga munosabati bo‘yicha elektron moodle ta’lim platformasidan foydalanish holati, o‘qituvchilarni ruyxatdan o‘tkazish va uni boyitish ishlari o‘rganiladi, kunlik monitoring natijalari o‘quv ishlari bo‘yicha prorektor, tegishli dekanatlarga taqdim etib boriladi. | 2021/2022 o‘quv yili davomida | TSNQ bo‘limi, O‘quv-uslubiy bo‘lim, fakultet inspektorlari |
| 17. | Talabalar bilimini aniqlash uchun tanlanma asosida qo‘shimcha ravishda nazorat ishlarini o‘tkazish (mazkur nazorat natijasi talabaning o‘zlashtirish ko‘rsatkichida aks etmaydi) | O‘qituvchilarning kompetensiyasi (talabalarning bilim darajasini o‘rganish asosida, muloqot, testlar, reyting baholash natijalari, talabalar o‘rtasida so‘rovnoma asosida) o‘rganiladi, natijalar tahlil qilinadi, ta’lim, shu jumladan masofaviy ta’lim sifatiga ta’sir ko‘rsatgan omillarni aniqlanadi va rahbariyatga tahliliy axborot kiritiladi. | 2021/2022 o‘quv yili davomida | TSNQ bo‘limi, O‘quv-uslubiy bo‘lim, fakultet dekanlari |
| 18. | Oliy ta’lim sifatini oshirish, tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish yuzasidan so‘rovnomalar o‘tkazish | Institut professor-o‘qituvchilari, talabalar o‘rtasida so‘rovlar o‘tkazish hamda jamoatchilik va ish beruvchilarning fikrini o‘rganish asosida oliy ta’lim sifatini oshirish, tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish choralari ko‘riladi, natijalari bo‘yicha ma’lumotlar OTM rektoriga taqdim etiladi | Har semestrda kamida 2 marta | TSNQ bo‘limi, ichki nazorat va monitoring bo‘limi |
| 19. | Kafedralarning institut reytingiga qo‘shgan hissalarini tahliliy o‘rganish va kafedralar reytingini aniqlash | Kafedralar orasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirish, ularning ilmiy-pedagogik faoliyati darajasi va sifatini oshirishni rag‘batlantirish, professor-o‘qituvchilarning ilmiy salohiyatidan samarali foydalanish, o‘qitish sifatini oshirish maqsadida belgilangan mezonlar bo‘yicha kafedralar reytingni aniqlanadi. | 2022 yil, aprel | Barcha prorektorlar, TSNQ bo‘limi, kafedra mudirlari |
| 20. | Institut professor-o‘qituvchilari va talabalarning ARMdan foydalanish holati (jumladan, elektron bazadan foydalanish uchun yaratilgan sharoitlar, internet tezligi)ni tahliliy o‘rganish | Institut fondidagi adabiyotlarni to‘liq elektron shaklga o‘tkazish va professor-o‘qituvchilar va talabalarning ARMdan foydalanish holati o‘rganiladi. Kutubxona fondlaridan talaba va tadqiqotchilar uchun tunu-kun foydalanish imkoniyatini tahlil qilinib, holat yuzasidan institut rektoriga axborot beriladi. | 2022 yil, may | TSNQ bo‘limi, ARM |
| 21. | Talabalar amaliyotining ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklarni inobatga olgan holda tashkil etilganligi va uning samarasini nazorat qilish | Tegishli ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha har bir talabaning 2-kursdan boshlab tegishli tarmoq (soha)ning muayyan tashkilotlari va korxonalarida malakaviy amaliyotlari tizimli ravishda o‘tkazilishi, | 2022 yil, iyun | Marketing va talabalar amaliyoti |

| | | | | |
|---|---|---|---|---|
| | | shuningdek, ularning amaliy mashg‘ulotlarini bevosita ishlab chiqarishda tashkillashtirish hamda bitiruvchilarni ishga joylashtirish holati o‘rganiladi | | bo‘limi, O‘quv-uslubiy bo‘lim, kafedra mudirlari |
| 22. | Institutda akademik qarzdor 1-2 kurs talabalarga mavjud akademik qarzlarni topshirish maqsadida yozgi semestrning belgilangan reglament asosida tashkil etilganligi | Ta’lim yo‘nalishlari kesimida akademik qarzdor talabalar soni aniqlanadi, mavjud akademik qarzlarni topshirish maqsadida qo‘shimcha dars mashg‘ulotlarining tashkil etilganligi, to‘lovlar, shart-sharoitlar, qarzdor talabalarga yaratilgan sharoitlar, ularning davomati va boshqa masalalar kompleks o‘rganiladi. | 2022 yil, avgust | TSNQ bo‘limi, O‘quv-uslubiy bo‘lim, kafedra mudirlari |

**Ta’lim sifatini nazorat qilish bo‘limi boshlig‘i** **U.Sirojiddinov**